

Date: 7th March-2026

MIOPIYANING PATOGENEZIDA IRSIY VA TASHQI OMILLARNING ROLI

Nishanova Yulduz Khatamovna, Muminov Xojiakbar Abdualim og'li
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Toshkent

Annotatsiya. Miopiyaning patogenezida irsiy moyillik va tashqi muhit omillarining o'zaro bog'liqligi klinik jihatdan tahlil qilinganda, genetik omillar ko'z olmasining aksial uzunlashishiga predispozitsiya yaratib, sklera tuzilmasining zaiflashuviga olib keladi[1]. Tashqi omillar — uzoq muddat yaqin masofada ishlash, raqamli qurilmalardan keng foydalanish hamda ochiq havoda kam vaqt o'tkazish — ushbu jarayonni tezlashtiradi[2]. Tadqiqot natijalari miopiya multifaktorial kasallik ekanligini hamda erta aniqlash va profilaktika muhimligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: miopiya, aksial uzunlashish, sklera, irsiy moyillik, multifaktorial omillar.

Maqsad. Miopiya patogenezida irsiy moyillik va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'sirini o'rganish

Material va metodlar. Tadqiqot 2025–2026-yillarda Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti ko'p tarmoqli klinikasining oftalmologiya bo'limida olib borildi. Tekshiruvga miopiya tashxisi qo'yilgan 137 nafar bemor jalb qilindi ularda o'rtacha yosh 12-16yosh bo'lgan. Jinsi taqsimotiga ko'ra, 70 nafar bemor qiz (51,1%) va 67 nafari og'il (48,9%)ni tashkil etdi. Anamnez ma'lumotlari va klinik tekshiruv natijalariga ko'ra, 119 nafar bemorda (87%) miopiya irsiy omillar bilan bog'liq bo'lib, 18 nafar bemorda (13%) kasallik rivojlanishida tashqi muhit omillari ustunligi aniqlangan. Barcha bemorlarda visometriya, avtomatik refraktometriya va biomikroskopiya o'tkazildi. Ko'rish o'tkirligi Snellen jadvali asosida baholandi.

Natijalar. Visometriya natijalariga ko'ra, bemorlarning o'ng va chap ko'zlarida uzoq masofaga ko'rish o'tkirligi pasaygan. O'ng ko'zda korreksiyasiz o'rtacha ko'rsatkich $0,3 \pm 0,1$ ni, chap ko'zda ham $0,3 \pm 0,1$ ni tashkil etdi. Optik korreksiya qo'llangandan so'ng o'ng ko'zda ko'rish o'tkirligi 0,9–1,0 gacha, chap ko'zda ham 0,9–1,0 gacha yaxshilandi, bu har ikkala ko'zda refraksion nuqsonning funksional xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Refraktometriya natijalariga ko'ra, o'ng ko'zda: Yengil darajadagi miopiya (–0,5 dan –3,0 D gacha) — 62 nafar (45,3%), O'rta daraja (–3,25 dan –6,0 D gacha) — 49 nafar (35,8%), Yuqori daraja (–6,0 D dan yuqori) — 26 nafar (18,9%)ni tashkil etdi. Chap ko'zda ham refraksion ko'rsatkichlar deyarli o'xshash taqsimotda qayd etildi: Yengil daraja — 62 nafar (45,3%), O'rta daraja — 49 nafar (35,8%), Yuqori daraja — 26 nafar (18,9%).

Irsiy omil ustun bo'lgan bemorlarda o'ng va chap ko'zlarda o'rta hamda yuqori darajadagi miopiya ko'proq uchrashi aniqlangan. Tashqi omillar ustun bo'lgan guruhda esa har ikkala ko'zda asosan yengil darajadagi miopiya qayd etildi. Biomikroskopiya tekshiruvlarida yuqori darajadagi miopiyada o'ng va chap ko'zlarda skleraning cho'zilishi hamda ko'z olmasining aksial uzunlashishi belgilari kuzatildi, bu miopiya patogenezida struktur o'zgarishlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Date: 7th March-2026



Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari miopiyaning rivojlanishida irsiy omillar yetakchi ahamiyatga ega ekanligini (87%) ko'rsatdi. Tashqi muhit omillari (13%) esa kasallikning boshlanishi va progressiyasini tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Irsiy moyilligi mavjud bemorlarda miopiyaning o'rta va yuqori darajalari ko'proq uchrashi aniqlanganligi sababli, risk guruhidagi shaxslarda erta diagnostika, muntazam oftalmologik nazorat va profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi..

1) Holden BA, Fricke TR, Wilson DA, Jong M, Naidoo KS, Sankaridurg P, Wong TY, Naduvilath TJ, Resnikoff S. Global Prevalence of Myopia and High Myopia and Temporal Trends from 2000 through 2050. *Ophthalmology*. 2016 May;123(5):1036-42. doi: 10.1016/j.ophtha.2016.01.006. Epub 2016 Feb 11

2) Morgan IG, Ohno-Matsui K, Saw SM. Myopia. *Lancet*. 2012 May 5;379(9827):1739-48. doi: 10.1016/S0140-6736(12)60272-4.